



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 19-martdagi PF-51-son va “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmonlari hamda “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari xodimlarini qo‘shimcha rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 26-fevraldagi “Tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Xalq ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 49-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur buyruq Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan.

5. Mazkur buyruq imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Vazir**

**X. Umarova**

Toshkent sh.,  
2025-yil “29”- may  
170 -son



**Kelishilgan:**

**Iqtisodiyot va moliya vaziri**

2025-yil “29”- may



**I. Kuchkarov**

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi  
vazirining  
2025-yil "28" - may dagi  
170 -son buyrug'iga  
ILOVA

**Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari huzurida  
yuridikshaxs maqomiga ega bo'lmagan Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini  
rag'batlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish  
tartibi to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari huzurida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida ochilgan alohida hisobvaraqda yuritiladigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini rag'batlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Jamg'arma mablag'lari tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan belgilangan tartibda "4010" mablag'lar manbasi bo'yicha ochiladigan tegishli g'aznachilik shaxsiy g'azna hisobvarag'ida shakllantiriladi.

3. Ushbu Nizom tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlariga nisbatan tatbiq etiladi.

**2-bob. Jamg'arma mablag'larini shakllantirish**

4. Jamg'arma mablag'lari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:  
tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari yillik ish haqi fondining – 50 foizi;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tasarrufidagi muassasalarning budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari (homiylilik xayriyalaridan tashqari), shu jumladan bo'sh turgan bino va yerlarini ijaraga berish hisobidan tushgan tushumlardan 3 foiz miqdoridagi ajratmalar.

5. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari yillik ish haqi fondining 50 foizi miqdoridagi ajratmalar ushbu bo'limlar xarajatlar smetasining "48 21 800" iqtisodiy tasnifida rejalashtiriladi hamda belgilangan tartibda tegishincha "4010" mablag'lar manbasi bo'yicha ochiladigan Jamg'armalarga o'tkazib beriladi.

**3-bob. Jamg'arma mablag'laridan foydalanish**

6. Jamg'arma mablag'lari tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimlari, shu jumladan metodistlarini quyidagi shakllarda moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi:

har oylik ustama;  
mukofot;



moddiy yordam.

7. Jamg'arma mablag'lari hisobidan o'z ish faoliyatida yuqori natijalarga erishgan, lavozim yo'riqnomasida belgilangan vazifalarni tashabbuskorlik bilan sifatli va vijdonan bajarilishidan kelib chiqib, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimlariga lavozim okladining maoshining (bazaviy tarif stavkasining) 100 foizigacha miqdorda ustama haq belgilanadi.

Bunda, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlari va metodistlariga ustama haq miqdorlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ushbu lavozimlarning faoliyat samaradorligini baholash mezonlari asosida belgilanadi.

8. Jamg'arma mablag'lari (yetarli darajada bo'lsa) doirasida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimlariga hisobot davridagi ish natijalari (ularning umumiy natijalarga qo'shgan shaxsiy hissasidan kelib chiqib) bo'yicha hamda yubiley va bayram kunlari munosabati bilan mukofotlar belgilanishi mumkin.

Bunda, yil davomida bir xodim uchun belgilangan mukofotlar miqdori tegishli lavozim okladining (bazaviy tarif stavkasini) 200 foiz miqdoridan oshib ketmasligi lozim.

9. Jamg'arma mablag'lari (yetarli darajada bo'lsa) doirasida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimlariga quyidagi holatlarda moddiy yordam berilishi mumkin va mazkur to'lovlar yil davomida bir xodim uchun tegishli lavozim okladining (bazaviy tarif stavkasini) 200 foiz miqdoridan oshib ketmasligi lozim:

xodim yoki uning yaqin qarindoshlari (ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari) vafot etganida;

xodim yoki uning qarindoshlari (ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari) turli xil kasalliklarga chalinganida;

tabiiy ofatlar natijasida xodimning doimiy turar joyi moddiy zarar ko'rganida.

10. Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlar miqdorlari tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari qoshida tashkil etiladigan komissiya qarori asosida belgilanadi.

Bunda, komissiya tarkibi tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'ining buyrug'i bilan kamida yetti kishidan iborat toq sonda quyidagicha tasdiqlanadi:

komissiya raisi – tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i;

komissiya a'zolari – tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i o'rinbosari – sho'ba boshlig'i, Inson resurslari bilan ishlash bo'yicha bosh-metodist, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati bosh buxgalteri, Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati boshlig'i – bosh muhandis, Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish va maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish sho'basi bosh mutaxassisi (yoki metodisti), Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish sho'basi bosh metodisti (yoki metodisti), AKTni joriy etish va ta'lim tashkilotlarini raqamlashtirish sho'basi bosh mutaxassisi (yoki bosh metodist);

Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis – komissiyaning mas'ul kotibi hisoblanadi.

Zaruriyatga ko'ra komissiya tarkibiga qo'shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

Komissiya majlislarida komissiya a'zolari umumiy sonining uchdan ikki qismi ishtirokida ma'qullanib qabul qilingan qarorlar vakolatli hisoblanadi.

Bunda, komissiya raisi, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i

o'rinbosari – sho'ba boshlig'i, Inson resurslari bilan ishlash bo'yicha bosh-metodist, Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati bosh buxgalteri, Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati boshlig'i – bosh muhandis ishtiroki majburiy hisoblanadi.

Komissiya qarori asosida belgilangan to'lovlar tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i tomonidan qabul qilinadigan buyruq asosida to'lab beriladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan tayinlangan har oylik ustamalar xodimlar tomonidan belgilangan vazifalarning o'z vaqtida bajarilmasligi, mehnat va tartib intizomiga rioya qilinmaganligi sababli komissiya qaroriga asosan bekor qilinadi yoki kamaytiriladi.

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'iga har oylik ustama haq miqdori tegishli hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarining buyrug'i asosida tayinlanadi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan belgilangan to'lovlar moliya yili uchun amal qiladi hamda olti oyda xodimlarning mehnat samaradorligidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqiladi.

Komissiya raisining tashabbusi yoki komissiya a'zolaridan kamida ikki nafarining taklifiga ko'ra xodimlarni mukofotlash, har oylik ustama haqlarni qayta ko'rib chiqish hamda xodimning murojaati yoki boshlang'ich kasaba uyushmasining tashabbusi bilan moddiy yordam berish haqidagi masalada komissiyaning navbatdan tashqari yig'ilishi chaqirilishi mumkin.

#### **4-bob. Jamg'arma mablag'larini hisobga olish va hisob-kitobini yuritish**

11. Jamg'arma mablag'larining hisobining yuritilishi tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

12. Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlar Jamg'armaga moliya yili uchun ajratilgan mablag' doirasida belgilanadi.

#### **5-bob. Jamg'arma mablag'larining xarajatlari ijrosini nazorat qilish**

13. Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti tomonidan qonun hujjatlari bilan belgilangan vakolatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari jamg'arma tushumlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni olishga haqli.

#### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

15. Jamg'arma mablag'larini tasarruf etish yoki boshqa moddiy maqsadlarga yo'naltirish (ishlatish) bilan bog'liq har qanday ko'rinishdagi aralashish taqiqlanadi.

Jamg'arma mablag'laridan foydalanish, jumladan tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlariga har oylik ustamalar va boshqa rag'batlantirishlar belgilash faqatgina komissiya qarori asosida amalga oshiriladi.

Bunda, ushbu komissiyalar faoliyatiga va ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

16. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i va Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatining bosh buxgalteri Jamg'arma mablag'larini shakllantirish, sarflash hamda hisobi va hisobotlarini to'g'ri yuritilishi bo'yicha shaxsan javobgar bo'ladi.

17. Jamg'arma hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarni belgilangan talablarga muvofiq to'g'ri belgilanishi bo'yicha Komissiya javobgar hisoblanadi.

18. Ushbu Nizom yuzasidan kelib chiqadigan nizoli masalalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.